


IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 12 211,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 810,4 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 14,8 % va o‘tganyildagi ko‘rsatkichga nisbatan 120,3 % o‘zlashtirildi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 401,4 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 85,2 % va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 106,8 % o‘zlashtirildi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
(2023-yil yanvar-sentabr)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati foiz, %	hajmga nisbatan % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	12 211,8	108,6	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	1 810,4	120,3	14,8
Byudjet mablag'idan	1 291,9	146,2	10,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi			
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	351,0	98,5	2,8
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	167,5	63,2	1,4
Markazlashmagan investitsiyalar:	10 401,4	106,8	85,2
Korxonalar o'z mablag'lari	2 117,7	85,0	17,4
aholi mablag'lari	1 405,7	99,6	11,5
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	6 568,0	122,4	53,8
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	310,0	65,3	2,5


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2023-yil yanvar-sentabr)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2023-yil yanvar-sentabr)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag'i hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,4 foizni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha:	12 211,8	108,6	6 919,0	120,9
➤ Andijon	2 104,8	98,5	772,1	94,0
➤ Xonobod	146,8	64,8	40,2	28,7
<i>tumanlar:</i>				
➤ Oltinko'l	534,6	55,3	47,9	117,8
➤ Andijon	555,2	89,8	76,3	51,6
➤ Baliqchi	496,4	111,9	312,0	116,6
➤ Bo'ston	140,2	81,8	38,1	46,2
➤ Buloqboshi	3 662,0	2,8 m.	3 509,3	2,9 m.
➤ Jalaquduq	445,7	128,6	177,1	166,9
➤ Izboskan	225,1	89,3	86,7	62,2
➤ Ulug'nor	214,9	115,3	127,1	169,1
➤ Qo'rg'ontepa	413,4	88,4	115,2	61,4
➤ Asaka	771,2	46,1	449,2	37,1
➤ Marhamat	457,7	130,2	186,2	157,4
➤ Shahrixon	672,8	122,9	288,9	108,1
➤ Paxtaobod	442,4	113,7	138,7	128,5
➤ Xo'jaobod	928,6	80,5	554,0	67,8

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlari, % da




Shahar va tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	12 211,8	1 589,0	10 622,8
<i>shu jumladan:</i> umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	100,0	100,0
<i>mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari</i>	28,8	24,3	29,5
qurilish-montaj ishlari	65,6	70,5	64,9
boshqa xarajatlar	5,5	5,2	5,6

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da



■ Yangi qurilish

■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish

■ Boshqalar

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Andijon viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi – 28,8 %, qurilish-montaj ishlari – 65,6 % hamda boshqa xarajatlar - 5,5 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga
o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 684,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,6 %), tog'-kon sanoatida 56,6 mlrd. so'm (0,5 %), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 931,6 mlrd. so'm (56,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 578,3 mlrd. so'm (4,7 %), qurilish sohasida 276,4 mlrd. so'm (2,3 %), ulgurji va chakana savdo sohasida 409,0 mlrd. so'm (3,3 %), tashish va saqlash 604,8 mlrd. so'm (5,0 %) hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 2 670,8 mlrd. so'm (21,8 %)ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ishga tushirilgan turar joylar


	Jami		shu jumladan: qishloq joylarda	
	soni	ming kv.m	soni	ming kv.m
Andijon viloyati	4 036	944,3	2 568	604,2
Andijon sh.	686	161,7	-	-
Xonobod sh.	30	6,3	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	382	89,5	231	53,9
Andijon	330	63,3	321	61,6
Baliqchi	197	48,4	151	36,5
Bo‘ston	85	18,5	56	12,3
Buloqboshi	142	31,2	92	21,3
Jalaquduq	226	54,7	180	45,5
Izboskan	126	29,7	91	21,4
Ulug‘nor	82	17,7	82	17,7
Qo‘rg‘ontepa	310	71,3	236	55,0
Asaka	332	89,0	235	68,7
Marhamat	279	52,6	235	43,4
Shahrixon	221	55,5	180	43,0
Paxtaobod	456	117,5	367	96,7
Xo‘jaobod	152	37,4	111	27,1

2023-yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 944,3 ming kv.m (2022-yilning mos davriga nisbatan 109,4 %) bo‘lgan 4 036 ta xonadonga ega bo‘lgan turar-joylar, ulardan 604,2 ming kv.m (114,7 %) bo‘lgan 2 568 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (2023-yil yanvar-sentabr oylari)

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Andijon viloyatida jami 5 321,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2023-yil yanvar-sentabr oylari)





Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi – bu, o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 208,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 121,2 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.



2022-yil
yanvar-sentabr




2023-yil
yanvar-sentabr

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 8,6 foizi yoki 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 150,3 %) ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2022- yil yanvar-sentabr
- 2023- yil yanvar-sentabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,1 foizi to'g'ri kelib, 2022-yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 0,5 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etgan holda 3 782,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ni tashkil etdi yoki 1 330,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning hajmi va o'sish sur'atlari



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 204,1 mlrd. so'm yoki 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,0 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 117,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 104,0 tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





**Shahar va tumanlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari
(2023-yil yanvar-sentabr oylari)**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk*	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Viloyat bo'yicha:	5 321,7	204,1	3,8	5 117,5	96,2
Andijon sh.	1 868,1	59,5	3,2	1 808,6	96,8
Xonobod sh.	152,3	-	-	152,3	100,0
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	293,3	6,8	2,3	286,5	97,7
Andijon	632,6	14,3	2,3	618,4	97,7
Baliqchi	172,9	16,0	9,3	156,9	90,7
Bo'ston	199,8	6,7	3,4	193,1	96,6
Buloqboshi	109,9	9,7	8,8	100,2	91,2
Jalaquduq	136,7	6,3	4,6	130,4	95,4
Izboskan	137,8	6,8	4,9	131,0	95,1
Ulug'nor	96,6	5,9	6,1	90,7	93,9
Qo'rg'ontepa	243,5	6,2	2,6	237,3	97,4
Asaka	178,2	5,4	3,0	172,8	97,0
Marhamat	216,7	4,3	2,0	212,5	98,0
Shahrixon	372,1	20,5	5,5	351,6	94,5
Paxtaobod	286,1	10,0	3,5	276,1	96,5
Xo'jaobod	225,0	25,7	11,4	199,3	88,6

* Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2023-yil yanvar-sentabr

9,2



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

17,1



Fuqarolik obyektlarining qurilishi

73,7



Bino va inshootlarning qurilishi

2022-yil yanvar-sentabr

5,1



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

16,8



Fuqarolik obyektlarining qurilishi

78,1



Bino va inshootlarning qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,4 % ni tashkil etib, 2022-yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulushi 63,7 % ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 3,2 % ga kamaydi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 2,1 % punktga ko'payib, 33,9 % tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 11,8 % ni tashkil etdi va 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'zgarishsiz qolgan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 88,2 % ni tashkil etdi va 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'zgarishsiz qolgan.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida norasmiy sektorlar tomonida qurilish ishlari bajarilmagan.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi va 1,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,6 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,6 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmida tashkilotlar ulushi, % da






Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (2023-yil yanvar-sentabr oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)



Kichik hajm (mlrd. so'm)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga - barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Reinvestitsiya - investitsiyalar bo'yicha daromadlar ko'rinishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Davlat mulkchiligi- mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o'z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o'tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar qiymatidan iborat bo'lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jamg'ariladi.

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritilgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar majmui.

Kapital- sarmoya, keng ma'noda o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini-o'zi ko'paytiruvchi qiymat.

Moliyaviy investitsiyalar- mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar orqali qo'yilmalar kiritish.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o'zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.

Qurilish — biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri bo'lib, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi.

Rekonstruksiya — mavjud narsani yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish jarayonidir. Bunda qoldiklariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa qiyofasini yoki dastlabki ko'rinishini tiklash, qurish hisoblanadi. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va h.k. orqali amalga oshiriladi.

Kapital ta'mirlash — qurilish konstruksiyalarini, shuningdek, muhandislik jihozlarini kommunikatsiyalar bilan tiklash yoki to'liq almashtirish tushuniladi. Amalda kapital ta'mirlash binoning tashqi ko'rinishini to'liq yoki qisman yangilashda ifodalanishi mumkin.

Joriy ta'mirlash - bu xizmat ko'rsatilayotgan ob'ektni shikastlanish va nosozliklardan o'z vaqtida va tizimli ravishda himoya qilishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.

Pudrat shartnomasi — fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa, ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Modernizatsiya, modernizatsiyalash - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.